

8-DARS
THERE IS/ THERE ARE



There is , there are u yerda bor degan ma'noni bildirib, biror joyda biror nima borligini bildiradi.

Masalan: *There is an apple in the fridge.* Xolodilnikda olma bor.

There is/are ni *have/has* dan farqi, *have/has* biror shaxsda yoki predmetda biror nima borligini bildirsa, *there is/are* esa biror yerda biror nima borligini bildiradi.



There's a boat. U yerda qayiq bor

There are three fish. U yerda uchta baliqlar bor.

Oldingi mavzuimizda o'tganimizda, biz sizga “**is**” ni birlik “**are**”ni esa ko'plik uchun ishlatilishini aytib o'tgandik, xuddi shunday ‘ **there is** – birlikdagi otni, **there are** esa ko'plikdagi otlarni borligini ko'rsatish uchun qo'llaniladi.

Masalan:

There is a pen on the table. (stol ustida ruchka bor)

There are two pens on the the table. (stol ustida ikkita ruchkalar bor)

Biz **there is/are** dan inkor gap yasaganimizda **to be fe'li** (is/are) dan keyin **not** yuklamasi qo'yiladi va u yerda yo'q deb tarjima qilinadi.

Masalan: *There is not a pen in my bag.* Mening sumkamda ruchka yo'q.

There are not five flowers in the classroom. Sinfxonada beshta gullar yo'q.

Biz **there is/are** dan so'roq shaklini yasaganimizda esa **to be fe'li** (is/are) egadan oldinga qo'yiladi va u yerda bormi deb tarjima qilinadi.

Masalan: **Is there** a cat in your home? Sizning uyingizda mushuk bormi?

Are there two copybooks in your bag? Sumkangizda ikkita daftaringiz bormi?


Ingliz tilida ko'pincha to be fe'lini qisqartmalaridan foydalaniladi. There is/are ni quyidagicha qisqartirib foydalanish mumkin.

there is = there's

there is not = there isn't

there are not = there aren't

Gaplarni is, are isn't yoki aren't qo'yib tugallang.



- 1 There ... *is* a helicopter.
- 2 There three cars.
- 3 There a park.
- 4 There a house.
- 5 There three children
in the park.
- 6 There a lorry.
- 7 There a supermarket.
- 8 There three lorries.

New words

boat – qayiq

starfish- dengiz yulduzi

bag – sumka

helicopter – vertolyot

car – mashina

park – istirohat bog'i

children – bolalar

lorry – yuk mashinasi

hat – bosh kiyim, shlyapa

dress – ko'ylak